**O’zbekiston Respublikasi Oliy va O’rta**

**maxsus  ta`lim vazirligi**

**Buxoro Oziq -Ovqat  va yengil**
**Sanoat Texnologiyasi Instituti**

**"XFX" kafedrasi**

**"Fuqaro muhofazasi" fanidan**

# MA'RUZALAR MATNI



Buxoro – 2008 yil

## Taqrizchilar:

Buxoro viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi o'quv bo'limining katta o'qituvchisi: **Narzullaeva**

Buxoro oziq-ovqat va yengli sanoat texnologiya institutining "Mexanika" fakulteti TVFva IT kafedrasining mudiri: **dots. Negmatov V.A.**

## Tuzuvchilar:


**dotsent SHodiyev S.N.**

**katta o'qituvchi Murodov A.T.**



Маъруза матнлари БухОО ва ЕСТИ институтининг "Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги" кафедрасининг йиғилишида кўриб чиқилди ва тасдиқланди.
Баённома N:____ "____"_____________ 2008 йил

# MA`RUZA 1.

## Fuqaro muhofazasining vazifalari va tashkil etilishi, fuqaro muhofazasi bo'yicha Aholining burchlari

### REJA

1. Fuqaro muhofazasining tushunchalari.
2. Fuqaro muhofazasining vazifalari.
3. Fuqaro muhofazasining umumiy rahbarlari.
4. Fuqaro muhofazasi boshlig'ining vakolatlari.
5. Respublika Vazirlar Maxkamasining fuqaro himoyasi sohasidagi vakolatlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligining Fuqaro muhofazasi bo'yicha vakolatlari.
7. Fuqarolarning fuqaro muhofazasi bo'yicha burchlari va majburiyatlari.
8. Fuqaro muhofazasi to'zilmalari.
9. Fuqaro muhofazasini moxiyati.

### ADABIYOTLAR


1.O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi" to'g'risidagi qonuni (T.26.05.2000y.)

2.Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning umumiy asoslari (T. 2001 y.)


Fuqaro muhofazasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunida, fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning umumiy asoslarini, davlat tashkilotlarining vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning huquq va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalari kursatib utilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi" to'g'risidagi qonuni 5 bob va 23 moddadan iborat.

1.Umumiy koidalar.

2.Fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, davlat organlari va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari.

3.Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquq va majburiyatlari.

4.Fuqaro muhofazasi xizmatlari va kuchlari hamda fuqaro muhofazasini moliyaviy ta`minlash, fuqaro muhofazasi ob`ektlari va mol-mulklarini o'z ichiga oladi.

Qonunning umumiy qoidalar bo’limida quyidagi asosiy tushunchalar qo’llanilgan:

Fuqaro muhofazasi-harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O’zbekiston respublikasi aholisini, huquqlarini moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o’tkaziladigan tadbirlarini davlat tizimi:

Fuqaro muhofazasi xizmati-fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlarini bajarish, fuqaro muhofazasi to’zilmalarining harakatlarini ta`minlash uchun kuchlar va vositalarni tayyorlash maqsadida to’zilgan funktsional bo’linmalar majmui.

Himoya inshootlari-aholini va ishlab chiqarishdagi xodimlarini zamonaviy qirg’in vositalaridan muhofaza qilishga maxsus mo’ljallangan muhandaslik inshootlari majmui.

Fuqaro muhofazasi kuchlari-qutkaruv va boshqa kechiktirib bo’lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun to’ziladigan fuqaro muxovazasi harbiy qismlari, umumiy va maxsus hududiy, funktsional va ob`ekt to’zilmalari.

Fuqaro muhofazasi vazifalari quyidagilardan iborat:

Aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalanish usullarini o’rgatish.

Ob`ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida shu harakatlar oqibatida yuzaga kelgan xavflardan himoyalanish harakatlari va usullariga tayyorlash.

Boshqaruv xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish.

Xalq xo’jaligi ob`ektlarini barqaror ishlashini ta`minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o’tkazish.

Aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish.

Fuqaro muhofazasi harbiy to’zilmalari shayligini ta`minlash.

Aholini umumiy va shaxsiy muhofazalanish vositalari bilan ta`minlash tadbirlarini o’tkazish.

Aholini harbiy harakatlar olib borish paytidagi yoki shu harakatlar oqibatida hayot faoliyatini ta`minlash.

Radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan ko’zatish va tajriba nazorati olib borish.

Qutqaruv va boshqa kechiktirib bo’lmaydigan  ishlarni o’tkazish.

Harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarar ko’rgan hududlarda jamoat tartibini yo’lga qo’yish va saqlab turish.

Aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalaga oshirish.

## Fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, davlat organlari va tashkilotlarning sohasidagi vakolatlari

O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasiga umumiy rahbarlikni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

O’zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri mamlakat fuqaro muhofazasining boshlig’idir.

O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasini boshqarish O’zbekiston Respublikasining favqulodda vaziyatlar vazirligi zimmasiga yuklanadi. Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hududlarida fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni tegishlicha lavozimga ko’ra fuqaro muhofazasining boshlig’i bo’lgan. Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari amalga oshiradilar.

Vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni ularning lavozimiga ko’ra mazkur organlar va tashkilotlar fuqaro muhofazasining boshlig’i bo’lgan rahbarlar amalga oshiradilar.

Fuqaro muhofazasi boshlig’i o’z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

Fuqaro muhofazasining tegishli rejalarini amalga joriy etish, Aholini, moddiy va ma`naviy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish to’g’risida qarorlar qabul qilish, fuqaro muhofazasi bo’yicha buyruqlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarish, o’z tassarufidagi hududlar hamda tashkilotlarning kuchlari va vositalarini fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni o’tkazishga jalb etish.

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi O’zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi bo’lib:

Fuqaro muhofazasini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yunalishlarini ishlab chiqadi.

O’z vakolati doirasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo’lgan qarorlar qabul qiladi.

O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi rejasi loyihasini ishlab chiqadi.

Harbiy qismlar va fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshqarilishini tashkil etadi.

Fuqaro muhofazasi extiyojlarini ko’zlab zarur qurol-aslahalar, texnika, muhofazalanish vositalari va boshqa moddiy-texnika vositalari etkazib berilishi uchun davlat buyurtmasi loyihasini shakllantiradi.

Xabar berishni tashkil etish va fuqaro muhofazasi tuzumini shay holatga keltirish bo’yicha detektiv hujjatlar ishlab chiqadi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining jangovorlik hamda safarbarlik tayyorgarligini ta`minlaydi.

SHaxsiy tartib va aholi fuqaro muhofazasi sohasida o'qish ishlarini tashkil etadi.

Fuqaro muhofazasi tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

Tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari:

Fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtiradilar va amalga oshiradilar;

Urush davrida korxonani barqaror ishlashini ta`minlash tadbirlarini amalga oshiradilar;

O'z xodimlarini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida vujudga keladigan xavflardan himoyalanish usullarini o'rgatishni amalga oshiradilar;

Xabar berish mahalliy tizimlarini yaratadilar va ularni foydalanishga doimo shay holatda saqlab turadilar;

Moddiy-texnika, tibbiy va boshqa xil vositalarning zahiralarini yaratadilar;

Potentsial xavfli ishlab chiqarish ob`ektlariga ega bo'lgan, shuningdek muhim mudofaa va iqtisodiy ahamiyatga molik tashkilotlar fuqaro muhofazasi tuzilmalarini yaratadilar va ularni doimo shay holatda saqlab turadilar.

## Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi xuquq va majburiyatlari

Fuqaroning fuqaro muhofazasi sohasidagi xuquqlari:

O'z hayoti, sog'ligi va mol-mulki harbiy harakatlardan muhofazalanishi;

Umumiy va shaxsiy muhofazalanish vositalaridan tekin foydalanishi;

Harbiy harakatlar kelayotgan joylarda o'zlari yo'liqishlari mumkin bo'lgan xavf darajasi va zarur xavfsizlik choralari to'g'risida axborot olish.

Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi majburiyatlari:

Ushbu qonunga va fuqaro muhofazasi sohasidagi boshqa qonun hujjatlariga rioya qilishlari;

Fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarishda ishtirok etishlari va tegishli tayyorgarlikdan utishlari;

Fuqaro muhofazasi signallarini, umumiy va shaxsiy muhofazalanish vositalaridan foydalanish koidalarini bilishlari;

Jabrlanganlarga dastlabki tibbiy va boshqa xil yordam ko'rsatishni bilishdari;

Davlat organlariga va shuningdek tashkilotlarga fuqaro muhofazasi sohasidagi vazifalarni xal etishda kumaklashishi;

Fuqaro muhofazasi ob`ektlari mol-mulkini asrab-avaylashlari shart.

## Fuqaro muhofazasi xizmatlari va kuchlari

Fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlari bajarilishini ta`minlash hamda ushbu maksadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun respublika, viloyat, tuman, shaxar shuningdek ob`ekt fuqaro muhofazasi xizmatlari tashkil etiladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqaro muhofazasi qo'shinlari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi kuchlarining asosini tashkil etadi.

Fuqaro muhofazasi tuzilmalarida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun hududiy ishlab chiqarish printsipina ko'ra tashkil etiladi.

Fuqaro muhofazasi tuzilmalari:

Buysunuviga ko'ra hududiy (viloyatlar, tumun va shaxarlardagi), hamda ob`ekt (xalq- xo'jaligi ob`ektlaridagi) to'zulmalarga

Belgilangan vazifasiga ko'ra:

-Umumiy maqsaddagi (zararlanish uchoklarida qutqaruv ishlarini olib borish uchun) tuzilmalarga va maxsus tadbirlarni bajaruvchi xizmatlar (qidiruv ishlarini olib borish, tibbiy yordam ko'rsatish, yong'inlarni tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, jamoa tartibini saqlash va hokazo) tuzilmalariga bo'linadi.

Fuqaro muhofazasi tuzilmalariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari: 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar qabul qilinadilar.

## Fuqaro muhofazasini moliyaviy ta`minlash.
## Fuqaro muhofazasi ob`ektlari va mol-mulki

Fuqaro muhofazasini moliyalash vazirliklar, idoralar va ular tasarrufidagi byudjetdagi tashkilotlarda, viloyatlar, tumanlar va shaxarlarda tegishlicha respublika yoki mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan, tashkilotlarda esa, o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Fuqaro muhofazasini moliyalash ijtimoiy foydalarning mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy manbalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Fuqaro muhofazasi ob`ektlari va mol-mulki jumlasiga quyidagilar kiradi:

-davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining himoya inshootlari hamda er usti binolari kompleksiga ega bo'lgan boshqaruv punktlari;

-fuqaro muhofazasining alohida va tutash qurilgan himoyalanish, radiatsiyadan saqlanish joylari;

-yakka muhofazalanish vositalari, radiatsion, kimyoviy qidiruv va dozimetrik nazorat asboblari;

-aloqa va xabar berish vositalari;

-davlat mulki bo’lgan, shuningdek fuqaro muhofazasi maqsadida foydalanish uchun tashkilotlarning mablag’lari hisobiga yaratilgan yoki sotib olingan boshqa moddiy-texnika vositalari;

-fuqaro muhofazasi tadbirlarini ta`minlash uchun davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, tashkilotlar tomonidan fuqaro muhofazasi mol-mulki zahiralari yaratiladi.

Fuqaro muhofazasi ob`ektlarini barpo etish mol-mulkidan foydalanish tartibi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1.O’zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi" qonunidagi fuqaro muhofazasining asosiy vositalarini ko’rsating?

2.Fuqaro muhofazasi to’g’risidagi asosiy tushunchani izohlang.

3.Fuqaro muhofazasiga umumiy rahbarlik qanday amalga oshiriladi?

4.Fuqaro muhofazasi boshlig’ining vakolatlari nimalardan iborat?

5.Respublika vazirlar maxkamasining fuqaro muhofazasi bo’yicha vakolatlari nimalardan iborat?

6.O’zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqaro muhofazasi bo’yicha vakolatlarini ko’rsating.

7.Tashkilotlarning fuqaro muhofazasi vakolatlari nimalardan iborat?

8.Fuqarolarning "Fuqaro muhofazasi" bo’yicha burchlari va majburiyatlari nimalardan iborat?

9.Fuqaro muhofazasi tuzilmalarini ko’rsating.

10.Fuqaro muhofazasi qanday moliyalashtiriladi.

11.Fuqaro muhofazasing mol-mulklariga nimalar kiradi?

## TAYANCH IBORALAR

Fuqaro muhofazasi, fuqaro muhofazasi xizmati, himoya inshootlari, fuqaro muhofazasi kuchlari, Vazirlar Maxkamasi, evakuatsiya tadbirlari, davlat nazorati, fuqarolarning fuqaro muhofazasi bo’yicha majburiyatlari, fuqaro muhofazasi qo’shinlari, fuqaro muhofazasi tuzilmalari, hududiy, ob`ekt tuzilmalari, moliyaviy ta`minlash.

# MA`RUZA 2.

# O'zbekiston Respublika favqulodda vaziyatlar vazirligi uning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari, hamda Aholini va xududda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish

## REJA

1.O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risida nizom.
2.Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning asosiy vazifalari.
3.Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish chora-tadbirlari.
4.Favqulodda vaziyatlar.
5.Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish.
6.Favqulodda vaziyatlarni oldini olish.
7.Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish.
8.Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy printsiplari.
9.Korxona va tashkilotlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari.

## ADABIYOTLAR


1.O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida. (11.04.96)

2. O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va xarakat qilish davlat tizimi to'g'risida. (23.12.97).

3.O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida (7.10.98)

4.Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning xuquqiy asoslari. T. 2001 yil.

5.Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasini qonuni. (20.08.1999)


### O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risida nizom

O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasi, avariyalari, haloqatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi ishlarda rahbarlikni hamda ularni muvofiqlashtirib borish ishlarini amalga oshiruvchi markaziy davlat boshqaruvi organi xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligini o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga va oliy majlisning boshqa

hujjatlariga, O’zbekiston Respublikasi Prizidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O’zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligiga taalluqli masalalarga doir xalqaro shartnomalarga, shuningdek mas`ul nizomga amal qiladi:

Quyidagilar O’zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari xisoblanadi;

-favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma`naviy qadriyatlarni muhofaza qilish, shuningdek, tinchlik va urush vaqtida favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarni kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqarish va amalga oshirish,

-favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday holatlardagi xatti harakatlarni boshqarishning davlat tizimini (FVDT), tashkil etish va faoliyatini ta`minlash,

-O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish,

-O’zbekiston Respublikasi hududida aholini, mamlakat hududini, respublikaning milliy boyligi bo’lgan ob`ektlarni muhofaza qilish, shuningdek favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqarish, tashkil qilish hamda amalga oshirish,

-vazirliklar, idoralar, viloyatlar, shahar va tuman hokimlarining Aholini va milliy boyligini muhofaza qilish, avariyalar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan,

-favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib borish.

O’zbekiston Respublikasi hududida favqulodda vazitlarni oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqishini amalga oshirishni tashkil etadi.

FVDT faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi:

O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi rejalari loyihalarini ishlab chiqqan va tasdiqlash uchun O’zbekiston Respublikasi Prizidentiga belgilangan tadbirni takdim etadi.

Fuqaro muhofazasi, favqulodda vaziyatlarning shu jumladan, haloqatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, aholini va hududlarni muhofaza qilish masalalariga oid maxfiy hujjatlar va boshqa hujjatlarning loyihalarini ishlab chiqilishini tashkil etadi va O’zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasiga ko’rib chiqish uchun taqdim etadi.

Manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning vujudga kelishi mumkinligini olidindan aniqlash, ularni modellashtirish O’zbekiston Respublikasi hududlarini xavfli ishlab chiqarishlar, ob`ektlar hamda tabiiy ofatlar xavfi mavjudligi bo’yicha rayonlashtirish, xalq xo’jaligi ob`ektlarida va hududlarida tavakkalchilik darajasining me`yoriy ko’rsatgichlarini ishlab chiqarish hamda joriy etish bo’yicha ishlarni tashkil qiladi va muvofiqlashtirib boradi.

Favqulodda vaziyatlarni tezkorlik bilan cheklash va bartaraf etishga doir ishlarni bajarish uchun doimiy tayyor bo’lib turuvchi avariya qutqaruv bo’linmalarini tuzish, tayyorlash va ulardan foydalanishni tashkil etadi. Aholini favqulodda vaziyatlar to’g’risida xabardor qilishni tashkil etadi, xabardor qilishning tegishli hududiy va mahalliy tizimlarining tashkil etilishini va ishlashini nazorat etadi.

Fuqaro muhofazasi chora-tadbirlarining favqulodda vaziyatlar bo'yicha hududiy boshqaruv organlari va bo'linmalari tomonidan bajarilishiga bevosita rahbarlik qiladi, ularning safarbarlik tayyorgarligini rejalashtiradi va tashkil etadi...

O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-tinchlik va harbiy davrda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida huquqiy va iqtisodiy me`yoriy hujjatlarni yagona kontseptsiyasini belgilash, ishlab chiqarish va amalga oshirish;

-Respublika hududidagi mumkin bo'lgan texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlarni prognozlash, ularning ijtimoiy iqtisodiy oqibatlarini baholash;

-favqulodda vaziyatlarni oldini olishda, odamlar xavfsizligini ta`minlashda, xavfli texnlogiyalar va ishlab chiqarishning tavakkalchiligini pasaytirish, mulkchilik shakllaridan va idoraviy bo'ysunishdan qat`iy nazar iqtisodiy tarmoklari, korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va kompleks ilmiy texnik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

-boshqaruv organlari va tizimlarning favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan kuch va vositalarning doimiy tayyorgarligini tayyorlash;

-aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotlarni yig'i6 ishlab chiqarish, almashish va berish;

-Aholini boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarni, FVDT kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

-favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zahiralarini yaratish;

-aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvina amalga oshiradi;

- favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga oid tadbirlarni amalga oshirish;

-favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida aholining, shu jumladan ularni tugatishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish;

-aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro xamkorlik qilish.

FVDT hududiy va funktsional tizimlardan iborat buladi, hamda respublika, mahalliy va ob`ektlar mikyosidagi 3 darajaga ega buladi.

FVDTning quyi tizimlari o'z ma`muriy hududlari doirasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun viloyatlar, tuman, shaharlar, kishloq va ovullar miqyosidagi bo'g'inlardan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari idorasining aholi va hududlarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha vazifalari quyidagilardan iborat:

- yonginlarni profilaktika qilish va o'chirishga doir tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, ular bilan bog'lik birinchi navbatdagi avariya-qutqaruv ishlarini amalga oshirish.

FVDT boshqaruv organlari va aholini yongin holatida, yuzaga kelgan yonginlarni bartaraf etish, ziyon va kurilishi mumkin bo'lgan zararning dastlabki bahosi to'g'risidagi axborot bilan ta`minlash.

Favqulodda vaziyatlar chog'ida jamiyat tartibi va yo'l xavfsizligini, ob`ektlar, hududlar, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilishlarni ta`minlash.

Davolash muassasalari bilan birgalikda favqulodda vaziyatlarda nobud bo'lgan aholini hisobga olish.

FVDT funktsional quyi tizimini tashkil etishga va uning faoliyatiga: jamoat tarkibi, yo'l va yongin xavfsizligini saqlash xizmatiga rahbarlik qilish.

Favqulodda vaziyatlarda jamoat ichimlik suv bilan ta`minlash tizimlari, inshootlari ishning barkamolligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, suv manbalarining radiaktiv, kimyoviy hamda zararli moddalar, bakterial vositalar va og'ir metallar bilan ifloslanishdan muhofaza qilishni ta`minlash, ichimlik suvining sifatini va oqova suvlarning tozalanishini ta`minlash.

Respublika hududidagi sanitariya-epidemiologiya oid ahvolni kuzatish, nazorat qilish, favqulodda vaziyatlarning xususiyatini hisobga olib, zarar ko'rgan aholiga tezkor tibbiy xizmat ko'rsatish uslublarini ishlab chiqarish, joriy etish va takomillashtirish. Zarar ko'rganlarga tez tibbiy xizmat ko'rsatish, favqulodda rayonlarda sanitariya-gigiena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishga oid ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish va x.k.

## O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi

Aholini va xalq xo'jaligi ob`ektlarni tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, respublikada tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligining fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilsin.

2. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin;

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma`naviy qadriyatlarni muhofaza qilish, shuningdek tinchlik va harbiy davrda favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarni kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT) ni tashkil etish va uni faoliyatini ta`minlash;

O'zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish; Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlar kengashi, xokimlarning Aholini va milliy boyliklarni muhofaza qilish, avariyalar, haloqatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga aholini, mamlakat xududini muhofaza qilishga hamda ular vujudga kelgan takdirda xalq xo'jaligi ob`ektlari faoliyatining barqarorligini oshirishga shuningdek aholini mansabdor shaxslarni

hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi tuzilmalarini tayyorlashga qaratilgan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqarishni tashkil etishi va amalga oshirishi Qoraqalpog’iston respublikasi viloyatlar shaharlar va tumanlarda vazirlarga davlat qo’mitalari va uyushmalar boshqaruvi raislariga korxona va tashkilotlarning direktorlari va boshliqlariga yuklansin.

## Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish

Asosiy tushunchalar.

Favqulodda vaziyat odamlar qurbon bo’lishi, ularning sog’ligi yoki atrof tabiiy muxitga zarar etishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izidan chiqishiga olib kelishi mumkin bo’lgan yoki olib kelgan avariya, haloqat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish - favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa`y-harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, favqulodda vaziyatlar ro’y berganda o’tkazilib, odamlar hayoti va sog’ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro’y bergan hududlarni xalqga olib, xavfli omillar ta`sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo’lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy ob`ektlar bo’yicha loyihalar va qarorlar yuzasidan davlat ekspertizasi o’tkazilishida ishtirok etadi.

Korxona va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari quyidagilardan iborat:

Xodimlar hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy ob`ektlarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo’yicha zarur choralarni rejalashtirishlari, moliyalashtirishlari va amalga oshirishlari:

Xodimlarni favqulodda vaziyatlar sharoitida harbiylashtirilmagan tuzilmalar tarkibida muhofazalash usullariga va harakat qilishga o’rgatishlari.

Xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va doimo shay holatda saqlab turishlari hamda favqulodda vaziyatlar taxdidi borligi yoki ro’y berganligi to’g’risida xodimlarni o’z vaktida xabardor qilishlari.

Favqulodda vaziyatlar sharoitida ob`ektlar sharoiti va xodimlar hayoti faoliyati barqaror kechishini ta`minlashlari.

Muxandislik himoya inshootlari, zaruratga qarab, olidindan barpo etilishini ta`minlashlari hamda ularni doimo shay holatda saqlab turishlari;

Favqulodda vaziyatlar ro’y berishi ehtimolini nazarda tutib, belgilangan tartibda moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;

Belgilangan tartibda ixtisoslashgan xizmatlar va tuzilmalarni yaratishlari, ularni shaxsiy tarkibi, texnika va anjom bilan to'ldirilishlari;

Belgiangan tartibda, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida axborotlar taqdim etishlari shart.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning asosiy vazifalarini izohlang.
2. O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi huquqlarini ko'rsating.
3. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida ma`lumot bering.
4. Favqulodda vaziyatlarni izohlang.
5. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida ma`lumot bering.
6. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish degan tushunchani izohlang?
7. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tO'g'risida ma`lumot bering.
8. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy yo'llarini izohlang.
9. Korxona va tashkilot rahbarlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlarini ko'rsating.

## TAYANCH IBORALAR

Favqulodda vaziyat; Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish; favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish; avariya-qutqaruv ishlari; tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar; favqulodda vaziyatlar davlat tizimi (FVDT).

# MA`RUZA 3.

## Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi

### REJA

I. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar.
1. Transport avariyalari va haloqatlari.
2. Kimyoviy xavfli ob`ektdagi avariyalar.
3. YOng’in, portlash xavfi mavjud bo’lgan ob`ektdagi avariyalar.
4. Gidrotexnik holatlar va avariyalar.

II. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar.
1. Geologik xavfli hodisalar.
2. Gidrogeologik xavfli hodisalar.
3. Favqulodda epidemologik vaziyatlar.

III. ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar.
1. Quruqlikning holat o’zgarishi bilan bog’liq vaziyatlar.
2. Atmosfera tarkibi va xossalari o’zgarishi bilan bog’liq vaziyatlar.
3. Gidrosfera holatining o’zgarishi bilan bog’liq vaziyatlar.

IV. Lokal, mahalliy, respublika va transchegarali favqulodda vaziyatlar.

### ADABIYOTLAR


1. Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi. (T.2001)
2. Murodov A.T., SHodiyev S.N. Fuqaro muhofazasi. (B.2000)


### Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar

1.Transport avariyalari va holatlari:

Ekipaj a`zolari va yo’lovchilarning o’limiga, havo kameralarning to’liq parchalanishiga, hamda qidiruv ishlarini talab qiladigan aviahalokatlar yong’inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibining buzilishiga sabab bo’lgan va temir yo’l xodimlarining, vokzallarda, binolarda bo’lgan odamlar o’limiga, shuningdek kuchli ta`sir etuvchi zaharli modda KTEZMlar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan temir yo’l transportidagi haloqatlar va avariyalar, yO’l transport hodisalari, tunellardagi halokatlar, avariyalar va yong’inlar kiradi.

2.Kimyoviy xavfli ob`ektdagi avariyalar:

Atrof-tabiiy muhitga kuchli ta`sir qiluvchi zaharli moddalarning otilib chiqishiga va shikastlovchi omillarning odamlar, hayvonlar va o’simliklarning ko’plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo’lgan yoki olib kelgan darajada, yo’l qo’yiladigan chegaraviy kontsentratsiyalarda ancha ortiq miqdorda sanitariya himoya

hududidan chetga chiqishiga sabab bo'ladigan kimyoviy xivfli ob`ektlardagi avariyalar, yong'in va portlashlar.

3. YOng'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan oson yonib ketadigan va boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan ob`ektlardagi, odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishiga va o'limga, asosiy ishlab chiqarish fondlarining nobud bo'lishiga, favqulodda vaziyatlar hududlarida ishlab chiqarish va odam hayoti faoliyatining buzilishiga olib keladigan avariyalar yong'inlar va portlashlar va h.k.

4.Energetika va kommunal tizimlardagi avariyalar.

Sanoat va qishloq xo'jaligi mas`ul istemolchilarining avariya tufayli energiya ta`minotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan GRES, GES, tetslardagi issiqlik markazlaridagi, bug' qozon va kompressor qurilmalaridagi va boshqa energiya ta`minoti ob`ektlaridagi avariyalar va yong'in, gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi avariya va portlashlar.

5. Odam o'limi bilan bog'liq bo'lgan va zudlik bilan avariya qutqaruv ishlari o'tkazilishini hamda zarar ko'rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yo'nalishdagi ob`ektlar konstruktsiyalarini to'satdan buzilishi, yong'inlar chiqishi, gaz portlashlar va x.k.

6. Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan avariyalar.

7.Gidrotexnik halokatlar va avariyalar.

Suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog'lardagi yo'llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan hududlarda odamlar o'limiga aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari.

## II.Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar

1.Geologik xavfli hodisalar:

Odamlar o'limiga, ma`muriy-ishlab chiqarish binolarini, texnologik asbob-uskunalarning, energiya ta`minoti, transport kommunikatsiyalari va infro tuzilma tizimlarining ijtimoiy yo'nalishdagi binolarining va uy-joylarning turlicha darajada buzilishiga ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelgan zilzilalar. Odamlar o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bO'lgan va xavfli xududdan odamlarni vaqtincha ko'chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko'chirishni talab qiluvchi er ko'chkilari, tog' o'pirishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar.

2.Gidrogeologik xavfli hodisalar.

Odamlar o'limiga, aholi punktlarini, ba`zi sanoat va qishloq xo'jaligi ob`ektlarining suv bosishiga, infra-tuzilmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan suv toshqinlari va sellar, aholi punktlaridagi, sanitariya dam olish uylaridagi, sog'lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, turistlar

va sportchilarning jarohatlanishiga va o'limga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan qor ko'chkilari, dovullar va boshqa xavfli gidroletereologik hodisalar.

3.Favqulodda epidemologik vaziyatlar:

O'lat, vabo, sarg'ayma, isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infektsiyalar.

Odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar epidemik toshmali telama, sibir yarasi, qutirish, SPID kasalliklari.

Epidemiya-alohida xavfli infektsiyalarga tegishli bo'lmagan yuqish manbai. Bitta yoki yuqish omili bir xil bo'lgan guruh bo'lib yuqumli kasallanishi. Bir aholi punkitida-50 kishi va undan ortiq.

Epizootiya-hayvonlarning ommaviy kasallanishi yoki nobud bo'lishi;

Epifitotiya-o'simliklarning ommaviy nobud bo'lishi.

## III. Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar

1.Quruqlikning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:

Haloqatli ko'chkilar foydali qazilmalarni qazish chog'ida er ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida paydo bo'luvchi er yuzasining o'pirilishi, siljishi.

Tuproq va er ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikandlar bilan ifloslanishi, og'ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog'ligi uchun xavf soluvchi kontsentratsiyalarda qo'llaniladigan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

2.Atmosfera tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bO'lgan vaziyatlar.

Oltingugurt dioksid, azodli oksid, uglevodli oksid, qurum, chang va muhitning yuqori ifloslanishi.

3.Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar.

Er yuzasi va er osti suvlarining sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi oqovalari: neft' mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan tarkibida og'ir metallar, har xil zaharli ximikatlar bor bo'lgan chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi; binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning emrilishiga olib kelishi mumkin bO'lgan yoki olib kelgan sezot suvlar darajasini oshishi;

Suv manbalari va suv olish joylarining zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvining keskin etishmasligi.

IV.Lokal, mahalliy, respublika va transchegarali favqulodda vaziyatlar.

1.Lokal favqulodda vaziyatga favqulodda vaziyat natijasida 10 dan ortiq bo'lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq bo'lmagan odam faoliyati sharoitlari bo'zilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqqi miqdorining birming barovaridan ortiq bO'lmaganini tashkil etadigan hamda vaziyat zonasi ishlab chiqarish ob`ekti yoki ijtimoiy maqsadli ob`ekt xududi tashqarisiga chiqmaydigan favqulodda vaziyatga tegishli bO'ladi.

2.Mahalliy favqulodda vaziyatga, favqulodda vaziyat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan kO'p bo'lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq, biroq 500 dan ko'p bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari faoliyatlari bo'zilgan, yoxud moddiy

zarar favqulodda vaziyat paydo bO'lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining birming barovaridan ortiqni, biroq 0,5 million barovaridan ko'p emas, tashkil etadigan hamda favqulodda vaziyat zonasi aholi punkti, shahar, tuman, viloyat tashqarisiga chiqmaydigan favqulodda vaziyat tegishli bo'ladi.

3.Respublika favqulodda vaziyat natijasida 500 dan ortiq odam jabrlangan, yoxud 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 0,5 milion baravaridan ortiqni tashkil etadigan, hamda favqulodda vaziyat zonasi viloyat tashqarisiga chiqadigan afvqulodda vaziyat tegishli bO'ladi.

4.Transchegara favqulodda vaziyatga oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan, yoxud favqulodda vaziyat yuz bergan va O'zbekiston xududiga dahl qiladigan favqulodda vaziyat tegishli bo'ladi.

5.Tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarga (jala, do'l, tuproq, er osti suvining, neft' maxsuloti, og'ir metallar, pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar bilan ifloslanishi, atmosferaning yo'l qo'yiladigan chegaraviy kontsentratsiyadan ortiq zararli moddalar bilan ifloslanishi va boshqalar) qarshi muqobil harakat qilish maqsadida mazkur nizomda nazarda tutilmagan miqdor ko'rsatgichlari favqulodda vaziyatlarning odamlar hayoti sog'ligiga va atrof muhitga ta`sirini aniq darajasiga qarab atrof tabiiy muhitning holatini kuzatuvchi va nazorat qiluvchi vazirliklar va idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining tegishli rahbar organlari tomonidan belgilanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarni izohlang?
2. Transport avariyalari va holatlari to'g'risida ma`lumot bering.
3. Kimyoviy xivfli ob`ektdagi avariyalarni izohlang.
4. YOng'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan ob`ektdagi avariyalarni izohlang.
5. Energetika va komunal tizimdagi avariyalar to'g'risida ma`lumot bering.
6. Geologik xavfli hodisalarni izohlang.
7. Gidrogeologik xavfli hodisalarni izohlang.
8. Favqulodda epidemologik vaziyatlarni izohlang.
9. Quruqlikning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlarni izohlang.
10. Atmosfera havosi tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar to'g'risida ma`lumot bering.
11. Gidrosfera holatini o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlarni izohlang.
12. Lokal favqulodda vaziyatlarni izohlang.
13. Mahalliy favqulodda vaziyatlar to'g'risida ma`lumot bering.
14. Republika favqulodda vazitlarni izohlang.
15. Transchegara favqulodda vaziyatlarni izohlang.
16. Tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar to'g'risida ma`lumot bering.

# MA`RUZA 4

## Davlat organlari, muassasalar, tashkilotlar va mahalliy davlat hokimiyati organlarida muhofaza

### REJA

1. Fuqaro muhofazasining urush va favqulodda vaziyatlar yuz bergandagi tadbirlari.
2. Fuqaro muhofazasini xalq xo’jaligi ob`ektlarida tashkil etish.
3. Fuqaro muhofazasi boshlig’i va uning vazifalari.
4. Ob`ekt fuqaro muhofazasi boshlig’i.
5. Xalq xo’jaligi ob`ektlarida fuqaro muhofazasi to’zilmalari.
6. Fuqaro muhofazasining harbiylashtirilmagan to’zulmalari.
7. Qutqaruv guruhlarining vazifalari.
8. Yig’ma guruhlar ularning vazifalari.
9. Oliy O’quv yurtlarida fuqaro muhofazasini tashkil etish.
10. Qishloq xo’jaligi tashkilotlarida evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish.

### ADABIYOTLAR


1. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari. (T.2001)
2. Murodov A.T., SHodiyev S.N. Fuqaro muhofazasi. (B.2000)
3. Altunin A.T. Fuqaro muhofazasi. (T.1985)


Aholini va xalq xo’jaligi ob`ektlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, Respublikada tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda fuqaro muhofazasining ahamiyati katta.

Fuqaro muhofazasining barcha tadbirlari ishchi va xizmatchilarni himoya qilish bo’yicha urush davrida korxona va tashkilotlarning barqaror ishlashini ta`minlash, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini olib borish, hamda shoshilinch avariya-tiklash ishlarini bajarishga tayyorlash bO’yicha belgilangan tadbirlarning bajarishdan iborat.

Xalq xo’jaligi ob`ektlarida fuqaro muhofazasini tashkil etish va uni aholi uchun o’sha obektning rahbari masul bo’ladi va u fuqaro muhofazasi boshlig’i hisoblanadi, uning fuqaro muhofazasining tadbirlarini o’tkazishga oid buyruq va

farmoishlari, ob`ektdagi butun shaxsiy tarkib uchun bajarilishi majburiy hisoblanadi. Ob`ekt fuqaro muhofazasi boshlig'ining huzurida fuqaro muhofazasi boshlig'ining boshqaruv organi, ob`ektdagi fuqaro muhofazasi masalalari bo'yicha bajariladigan butun amaliy faoliyatini tashkilotchisi bo'lgan fuqaro muhofazasi shtabi to'ziladi. Fuqaro muhofazasi boshlig'i ob`ekt fuqaro muhofazasi boshlig'ining o'rinbosari hisoblanadi. Unga fuqaro muhofazasining boshlig'i nomidan ob`ektdagi fuqaro muhofazasi masalalari bo'yicha buyruq va farmoyishlar chiqarish huquqi beriladi. SHuningdek xalq xo'jaligi ob`ektlarida xabar berish, aloqa, tibbiyot, o't o'chirish, avariya texnika, reaktsiya va kimyoviy qurollarga qarshi himoya, pana va yashirinish joylari, energiya ta`minoti, transport, moddiy-texnika ta`minoti bo'yicha ham fuqaro muhofazasi xizmati tashkil etiladi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish ob`ektlarida qishloq xo'jaligi hayvon va o'simliklarni himoya qilish xizmatlari to'ziladi. Bu xizmatlarning vazifasi shoshilinch avariya-tiklash ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan kuch va vositalarni tayyorlashdan hamda ular tomonidan buyurtirilgan ishlarni bajarish vaqtida mazkur kuchlarga rahbarlik qilishdan iborat. Ishchi va xizmatchilari kam sonli bo'lgan korxonalarda fuqaro muhofazasi shtabi va xizmatlari tuzilmasligi ham mumkin, zarur tadbirlarni o'tkazish vaqtida ularning vazifasini shu korxonaning to'zilishi bO'yicha boshqaruv organlari bajaradilar. Tuzilmalarni komplektlashtirish tsexlar, ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha amalga oshiriladi. Ko'pchilik tashkilotlarda tegishli komandalar, guruh va zvenolardan, shuningdek sanitariya drujinalaridan tashkil topgan qutqaruv guruhlari bilan to'ldiriladi. Bunday tuzilmalarga shikastlangan kishilarni qidirib topish, ularni vayronalar ostidan, buzilgan bino va bosib qolgan himoya inshootlari ostidan olib chiqish, jarohatlangan kishilarni qutqarish hamda ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish vazifasi yuklatiladi. Yirik sanoat korxonalarida bulardan tashqari yig'ma guruhlar ishlarni mexanizatsiyalashtirish bo'yicha yirik guruxlar to'ziladi. Bu tuzilmalar odamlarni qutqarishdan tashqari yana kechiktirib bo'lmaydigan avariya-tiklash ishlarini bajarishlari, yong'inlarni o'chirishlari, joylardagi transport va boshqa xavfli holatlarni oldini olishlari kerak.

Yig'ma guruhlar-korxonalarning safarbarlik uchun g'oyat kuchli tayyorgarchilik kutgan va zarur texnika bilan ta`minlangan tuzilmasi hisoblanadi. Tashkilot va o'quv yurtlarida tuzulmalar asosan o'z korxonalarida odamlarni qutqarish bO'yicha belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun tuziladi. SHuningdek mahalliy hokimiyat tashkilotlari huzurida ko'proq avariya-texnika guruhlari, radiatsion va kimyoviy kuzatish postlari, pana joylar va yashirinish joylarida xizmat ko'rsatish jamoat tartibini saqlash guruhlaridan iborat tuzilmalar tashkil etiladi. SHaharlardan tashqaridagi joylarda joylashgan

ko'pchilik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tashkilotlarida shaharlardan evakuatsiya qilingan korxona va tashkilotlarni, fuqaro muhofazasining harbiylashtirilmagan tuzilmalrini o'rnashtirish, turli tomonlarga bo'lib yuborilayotgan aholini joylashtirish, shikastlanish o'choqlaridan evakuatsiya qilingan yaradorlarni qabul qilish, joylashtirish, yordam ko'rsatish va davolash singari masalalarni hal qilish uchun tashkilotlarda evakuatsiya qilingan kishilarni mana shu rayonlarga qabul qilish bilan hamda xonalarni kasalxona va boshqa muassasalarga mo'ljallab moslashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqiladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Fuqaro muhofazasining urush va favqulodda vaziyatlar yuz bergandagi tadbirlari nimalardan iborat.
2. Xalq xo'jaligi ob`ektlarida fuqaro muhofazasi qanday tashkil etilgan?
3. Fuqaro muhofazasi boshlig'i va uning vazifalarini ko'rsating?
4. Ob`yekt fuqaro muhofazasi boshlig'i va uning vazifalarini izohlang?
5. Xalq xo'jaligi ob`yektlarida fuqaro muhofazasi tuzilmalari qanday tuzilgan.
6. Fuqaro muhofazasining harbiylashtirilmagan tuzilmalari haqida ma`lumot bering?
7. Qutqaruv guruhlarini vazifalarini ko'rsating?
8. Yig'ma guruhlarning vazifalari nimalardan iborat?
9. Oliy o'quv yurtlarida fuqaro muhofaza tizimlari to'g'risida ma`lumot bering?
10. Qishloq joylarida ko'chirilgan aholini joylashtirish tartibini izohlang?

# MA`RUZA 5.

## Aholini himoya inshootlarida yashirinishi

### REJA

1. Aholini himoya qilish asoslari.
2. Himoya inshootlari.
3. YAshirinish joylari.
4. Avariya hollarda foydalanishga mo'ljallangan chiqish joylari.
5. Radiatsiyaga qarshi pana joylar.
6. Eng oddiy pana joy-chuqurlar.
7. Usti ochiq va yopiq xandaklar.
8. Himoya inshootlaridan foydalanish.

### ADABIYOTLAR


1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshqin, suv oqimlarini oqizib yuborishi va ko'chki hodisalari bilan bog'liq bo'lgan holatli oqibatlarni oldini olish ham ularni bartaraf etish chora-tadbirlari" to'g'risida qaror. (12.04.1994)
2. Murodov A.T., SHodiyev S.N. Fuqaro muhofazasi. (B.2000)
3. Altunin A.T. Fuqaro muhofazasi. (T.1985)


Aholini ommaviy qirg'in qurollari va boshqa hozirgi zamon hujum vositalaridan himoya qilishning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

1.Aholini himoya inshootlaridan yashirinish,

2.SHaharda qolib o'z faoliyatini davom ettirayotgan korxonalar, muassasa va tashkilotlar ishchi va xizmatchilarni shahardan tashqariga shuningdek, shaharda qolgan Aholini evakuatsiya qilish.

3.Aholini shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi.

SHu bilan birgalikda aholini ommaviy qirg'in qurollari, terroristik harakatlardan himoya qilinishni ta`minlash uchun: aholini himoya usullariga umumiy majburiy o'qitish, dushman yoki teroristik kuchlar tomonidan hujum xavfi bo'lishi to'g'risida aholini o'z vaqtida xabardor qilishni uyushtirish, oziq-ovqatlarni, suvni, qishloq xo'jaligi o'simliklari va hayvonlarini zaharlovchi moddalardan himoya qilish, yong'inga qarshi, epidemiyaga qarshi tadbirlar sanitariya-gigiena tadbirlarini o'tkazish, shkastlanish o'chog'larida qutqaruv ishlarini hamda shoshilinch avariya-tiklash ishlarini tashkil etish va o'tkazish.

Himoya inshootlari-bu aholini yadro, ximiyaviy bakteriologik hamda hozirgi zamon hujum vositalaridan, shuningdek yadro portlashi, atom elektrostantsiyalarida sodir bo'lgan buzilishlar natijasida sodir bo'lishi kutilgan ikkinchi qayta shikastlovchi faktorlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan maxsus injinerlik inshootlaridir. SHuning uchun ham aholini yashirinish joylarida, hamda radiatsiyaga qarshi pana joylarda himoya qilish vazifasini hal etishda aholini bunday inshootlar bilan

ta`minlanishi muhim o'rin tutadi. YAshirinish joylarida va radiatsiyaga 50 nafardan ortiq kishilar joylashtiriladigan pana joylarda, garchi eng oddiy tipda bo'lsa ham shamollatish tizimi albatta o'rnatilishi kerak.

Eng oddiy pana joy-usti ochiq xandaklar.

Dastlab xandak ochiq holda tayyorlanadi. Uning chuqurligi 170-180 sm bo'ladi, xandak yuqori qismining eni 110-120 sm uzunlikda va xandak ostining eni 80 m kattalikda qaziladi. Bir qator hollarda xandakka odamlarning yotgan holda joylashtirish ham ko'zda tutiladi. Bunday hollarda xandakni har bir kishi uchun 1,5-1,8 m hisobidan kavlanadi. YAshirinuvchi kishilarga zarbaviy tO'lqinning shikastlovchi ta`sirini kamaytirish maqsadida xandakning egri-bugri shaklda yoki burchak shaklida kovlab tayyorlanadi. Xandakka kiriladigan joylarni 2-2,5 m uzunlikda zinasimon qilib, har bir zinaning kattagina 30-40 sm bO'lgan 5-6 pillapoya chiqarib kurish va pillapoyalarni himoya uchastkasiga tutash joylarga qaratib to'g'ri burchak ostida tayyorlash maqsadga muvofiq.

Usti yopiq xandaklar.

Ko'p hollarda usti yopiq xandaklar qurish zarur bo'ladi. Bunday xandaklar yadro qurolining barcha shikastlovchi faktorlaridan ham boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurollaridan himoya qilish imkoniyatini yana oshiradi.

Xandakka suv kirib ketmasligi uchun uning tomiga suv o'tkazmaydigan qoplama, gidroizolyatsiya o'rnatiladi. Xandakka kiriladigan yo'llarni radioakktiv yong'indan saqlash uchun ularning tomi er yuzasidan 80-90 sm yuqoriga turtib chiqqan bo'lishi kerak. Usti yopiq xandaklarda shamollatishni amalga oshirish uchun xandakka kiriladigan eshiklarni narigi tmoniga ichkaridagi havoni so'ruvchi tuynuk quriladi. Tuynukning katta kichikligi xandakka qancha odam sig'ishiga qarab belgilanadi. Tuynukning yuqorigi qismi 1,5-2 m balandlikda tashqariga chiqarib turilishi kerak va ularda albatta etish tizimi rejalashtiriladi.

**Himoya inshootlaridan foydalanish.**

Himoya inshootlariga belgilangan rejim va tartibga qat`iy rivoya qilish lozim. Bundan tashqari ular boshliq va xizmat ko'rsatuvchi zonaga inshootdagi tartibni saqlashga yordam ko'rsatmoqlari lozim: intizoga qat`iy riavoya qilish, himoya inshootlarida yashiringan kishilarni mustahkam himoya qilishning asosiy shartlaridan biridir. YAshirinish joylaridan zaharlangan maydonlarga chiqish zarurati paydo bO'lgan vaqtlarda shaxsiy muhofaza vositalaridan albatta foydalanish zarur. YAshirinish joyiga qaytib kelingach esa shaxsiy himoya vositalarini, ustki kiyimlarni radioaktiv changdan tozalash va ularni tamburda qoldirish kerak. Aholini himoya inshootlarida bo'lish vaqti xalq xo'jaligi ob`ektlarida fuqaro muhofazasi shtabi tomonidan belgilanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Aholini himoya qilish asoslari to'g'risida tushuncha bering.
2. Himoya inshootlari to'g'risida ma`lumot bering.
3. YAshirinish joylari qanday tashkil etiladi.
4. Avariya holatlarida yashirinish jogylaridan qanday chiqiladi?

5. Radiatsiyaga qirshi pana joylar qanday quriladi?
6. Eng oddiy pana joylardan foydalanishni ko’rsating.
7. Usti ochiq va yopiq xandaklar qanday quriladi?
8. Himoya inshootlaridan foydalanish tartib-qoidalari.

## MA`RUZA 6.

## Aholini bo’lib joylashtirish va evakuatsiya qilish

### REJA

1. Aholini bo’lib joylashtirish.
2. Evakuatsiya.
3. Aholini bo’lib joylashtirish va evakutsiya qilishni tashkil etish va o’tkazish.
4. Yig’ma evakuatsiya bo’limlari.
5. Aholini piyoda va transport vositalari yordamida evakuatsiya qilish.
6. Bo’lib joylashtirish va evakuatsiya qilish vaqtida aholining vazifalari.

### ADABIYOTLAR

4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshqin, suv oqimlarini oqizib yuborishi va ko’chki hodisalari bilan bog’liq bo’lgan holatli oqibatlarni oldini olish ham ularni bartaraf etish chora-tadbirlari" to’g’risida qaror. (12.04.1994)
5. Murodov A.T., SHodiyev S.N. Fuqaro muhofazasi. (B.2000)
6. Altunin A.T. Fuqaro muhofazasi. (T.1985)

Aholini bo’lib joylashtirish-bu urush, tabiiy ofatlar, davrida shaharlarda o’z ishini davom ettirish uchun qolgan korxonalarning ishchi va xizmatchilarini shahardan tashkiliy ravishda transportda va piyoda olib chiqish hamda shahar tashqarisidagi hududlarda joylashtirish demakdir.

Evakuatsiya-bu qolgan aholini shahardan tashqaridagi hududlarga transportda va piyoda olib chiqib ketishdir. Aholini bo’lib joylashtirish va evakuatsiya qilish rejalashtirilayotgan shaharlardagi har bir korxona, muassasa va O’quv yurtiga shahardan tashqari hududda aholini joylashtirish rayoni belgilanadi. Ishchilar, xizmatchilar va ularning oila a`zolari soniga qarab, ular uchun bir-biri bilan yonma-yon joylashgan bir yoki bir necha aholi yashaydigan hududlar ajratilib berilishi mumkin.

Aholini bo’lib joylashtirish hamda evakuatsiya qilishni tashkil etish va o’tkazish. Ishchilar, xizmatchilar va ularning oila a`zolarini bo’lib joylashtirish va evakuatsiya qilish ishlab chiqarish printsipi bO’yicha amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’lmagan aholini evakuatsiya qilish hududiy printsip bo’yicha yashash joylariga qarab, mahalla qo’mitalari va uy joylardan foyjalanish idoralari orqali

amalga oshirladi. Aholini bo’lib joylashtirish va evakuatsiya qilishni shahar fuqaro muhofazasining boshliqlari tashkil etiladilar. evakuatsiya tadbirlarini bevosita o’tkazish ishi bilan xalq xo’jaligi ob`ektlari fuqaro muhofazasining boshliqlari va shtablari, mahalla qo’mitasi raislari uy-joydan foydalanish shirkat raislari hamda shaharlarda tashkil etiladigan evakuatsiya komissiyalari shug’ullanadilar. Aholini xabardor qilish uchun har xil turdagi xabar berish vositalaridan, shuningdek omaviy axborot vositalari, radio, televidenie va boshqalaridan foydalaniladi. Yig’ma evakuatsiya punktiga etib kelgan aholi ro’yxatdan o’tkaziladi, bo’lib joylashtiriladigan va evakuatsiya qilinadigan aholi tegishli tarzda taqsimlab chiqiladi. Aholini tashishga mo’ljallangan tarsportning etib kelishiga qarab yig’ma evakuatsiya punktida ro’yxatdan o’tkazilgan kishilar ularni transportga o’tkazish uchun mo’ljallangan punktlarga yo’llaniladi. Transport vositalari va piyoda tartibda bo’lib joylashtirilayotgan va evakuatsiya qilinayotgan kishilar shahar tashqarisidagi hududga yoki belgilangan punktlarga etib kelgach, transportdan tushiriladi va tashkiliy ravishda evakuatsiya qabul punktlariga qishloqdagi kuchlar o’rnashgan joylarga jo’natiladilar. Joylashtirilayotgan va evakuatsiya qilinayotgan aholiga kommunal maishiy xizmat ko’rsatish masalalari qishloq joylaridagi mavjud ana shunday bo’limlarni kengaytirishlari kerak. evakuatsiya qilingan bolalar qishloq joydagi maktablarda o’qishni davom ettirishlari mumkin.

Bo’lib joylashtirish va evakuatsiya qilish vaqtida aholining vazifalari.

Aholini bo’lib joylashtirish va evakuatsiya qilish ishlarining muvaffaqiyati ko’p jihatdan bo’lib joylashtirish va evakuatsiya qilishga mo’ljallangan aholining o’ziga, uning uyushqoqligi va ushbu tadbirlarni amalga oshirish vaqtida uning intizomliyligiga bog’liq bo’ladi. Uyni bevosita tashlab ketish oldidan elektr asboblari va gaz o’chiriladi, deraza va eshiklar berkitiladi.

Buyumlardan eng zarur bo’lganlari-kiyim-kechaklar, poyabzal, ichki kiyimlar, ichimlik suvi va oziq-ovqatlar olinadi. Tez buzilmaydigan, saqlash qulay bo’lgan, hamda iste`mol qilish oldidan uzoq muddatli tayyorgarlikni talab qilmaydigan oziq-ovqatlar, konservalar, qotgan non va boshqa mahsulotlar olingani ma`qul. Olinadigan va olingan oziq-ovqat mahsulotlari har bir kishi o’zi ko’tarib yura oladigan miqdorda bo’lmog’i kerak. Piyoda tartibda evakuatsiya qilish vaqtida yuklarni tashish qulay bo’lishi uchun ularni yuk xaltalarga joylashtiriladi. Katta yoshdagi kishilar o’zlari bilan quyidagi hujjatlarni olib yurishlari kerak: pasport, harbiy guvohnoma, mehnat yoki nafaqa hujjati, o’quv yurtini tugatganligi to’g’risida diplom, nikoh to’g’risidagi, hamda bolalarini tug’ilganligi haqidagi guvohnoma. Bo’lib joylashtiriladigan va evakuatsiya qilinadigan kishilar o’zlariga ko’rsatilgan yig’ma evakuatsiya bo’limlariga shahardan tashqari xududga jo’natish uchun belgilangan vaqtda etib kelmoqlari kerak. Agar kimdir kasal bO’lib qolsa va yig’ma evakuatsiya bo’limiga etib kelolmasa o’z qarindoshi, qo’ni-qo’shnisi orqali bundan ob`ekt fuqaro muhofazasi boshlig’ini xabardor qilishi lozim. Aholini bo’lib joylashtirish va evakuatsiya qilish bo’yicha tegishli joyga etib kelgan kishilar mahalliy hokimiyat organlarining barcha ko’rsatmalarini albatta bajarishlari, radiaktiv zaharlanish hollarida kishilarni himoya qilish uchun zarur bo’lgan radiatsiyaga qarshi yashirinish joylari qurilishida faol ishtirok etishlari shart.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Aholini bO’lib joylashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Evakuatsiya to’g’risida ma`lumot bering.
3. Aholini bo’lib joylashtirish va evakuatsiya qilish amalda qanday bajariladi.
4. Yig’ma evakuatsiya bo’limlari qanday tashkil etiladi.
5. SHahar fuqaro muhofazasi boshlig’ining aholini bO’lib joylashtirish bo’yicha vazifalari.
6. Aholi tarnsportlarda qanday evakuatsiya qilinadi?
7. Piyoda tartibda aholi qanday evakuatsiya qilinadi?
8. Evakuatsiya qilinishi kerak bO’lgan aholi, qanaqa zarur bO’lgan buyumlarni olishlari kerak?
9. Piyoda tartibda evakuatsiya qilinayotgan aholi yuk xaltalari yarliklariga nimalar yoziladi?

## TAYANCH IBORALAR

Aholini bo’lib joylashtirish, evakuatsiya, aholini bo’lib joylashtirish rayoni, shahar fuqaro muhofazasi boshlig’i, evakuatsiya komissiyalari, yig’ma evakuatsiya bO’limlari, transportda evakuatsiya qilish, piyoda tartibda evakuatsiya qilish, evakuatsiya qabul bo’limlari.

# MA`RUZA 7.

## SHaxsiy himoya vositalaridan foydalanish

### REJA

1. SHaxsiy himoya vositalarining vazifalari.
2. SHaxsiy himoya vositalarining bo'linishlari.
3. Fil'trlovchi gazga qarshi niqoblar.
4. GP-5 qarshi niqobining tuzilishi va ishlash jarayoni.
5. Gazga qarshi niqobdan foydalanishga tayyorlash.
6. Gazga qarshi niqobdan foydalanish qoidalari.
7. Respiratorning ishlash printsipi.
8. Nafas olish organlarini himoya qilishning eng oddiy vositalari.
9. SHaxsiy himoya vositalarini saqlash va ehtiyot qilish.

### ADABIYOTLAR


1. Murodov A.T., SHodiyev S.N. Fuqaro muhofazasi. (B.2000)
2. Altunin A.T. Fuqaro muhofazasi. (T.1985)


SHaxsiy muhofaza vositalari odamning ichki a`zolari, badani va kiyimlarini radioaktiv, zaharli va bakterialogik moddalardan himoya qilish uchun ishlatiladi. Ularga nafas olish a`zolarini himoya qilish vositalari (gaz tozalagich, respirator changga qarshi matoli maska, matomarlidan qilingan bog'log'ich) va terini himoya qilish vositalari (himoya kiyimlari, poyabzal, qo'lqoplar) hamda tibbiy himoya vositalari kiradi.

Nafas olish a`zolarini himoya qilish vositalari.

Nafas olish a`zolarini himoya qilish vositalari GP-5, PDF-2SH. Ularning bajaradigan xizmatlari zaharlangan havoni insonlarga tozalab berishdan iboratdir. Umumharbiy gaz tozalagich fil'tirlovchi, yutuvchi korobka mustahkam bO'lishi uchun unda burama joylar bo'ladi. Korobkaning ichki qismi havo oqimi bO'ylab tutunga qarshi fil'tir va maxsus ishlov berib faollashtirilgan kO'mir solingan yutgich bilan ta`minlangan. Tutinga qarshi fil'tir maxsus ingichka tolali asbest moddasi qo'shib preslangan qozndan iborat bo'lib, filtirning yuzasini ko'paytirish maqsadida u qat-qat qilib buklanadi. Lekin zaharlovchi moddalarning bug'lari va gazlari ushlab qolinmaydi, ular ikkinchi qavat faollashgan ko'mirga ushlanib qoladi. Faollashtirilgan ko'mir gaz tozalagich karobkada asosiy yutuvchi vosita bo'lib hisoblanadi. Faollashtirilgan ko'mir, toshko'mir, pista ko'mir, toror va ba`zi organik mahsulotlarga mahsus ishlov berish yo'li bilan olinadi. Fosgen difosganni yomon sorbtsiyalaydi. TSianid kislota bug'lari hamda is gazini deyarli sorbtsiyalamaydi.

Kichik molekulali zaharlovchi moddalari ushlab qolishi uchun faollashgan ko'mir tarkibiga katalizatorlar va kimyoviy yutuvchi vositalar kiritilishiga olib keladi.

Fil’tirlovchi gazga qarshi niqoblar.

Fil’tirlovchi gazga qarshi niqoblar radioaktiv zaxarlovchi moddalarning va bakterial vositalarning nafas olish organlariga, ko’zga, yuzga tushishidan odamni himoya qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda fuqaro muhofazasi tizimida katta yoshli aholi uchun GP-5, GP-5m markali fil’tirlovchi gazga qarshi niqobdan foydalanib kelinmoqda.

Gazga qarshi niqobning to’zilishi.

Fil’tirlovchi gazga qarshi niqob-fil’tirlovchi, chang yutuvchi quticha va yuz qismidan iborat bo’ladi. Unga yana sumka va ichiga terilmaydigan plenka yoki maxsus "qalam" solingan quti kiradi. Undan gazga qarshi niqob yuz qismidagi ko’zoynak shishalarini terlashdan saqlash uchun foydalaniladi. GP-5, GP-5m gazga qarshi niqoblarni fil’tirlovchi-chang yutuvchi kichik hajmli quticha va yuz qismi sifatida, yuzga kiydiriluvchi niqob bilan ta`minlangan. Fil’tirlovchi, chang yutuvchi, gazga qarshi niqob qutisi ichiga olinayotgan havoni radioaktiv, zaharlovchi moddalar va bakterial vositalardan tozalash uchun xizmat qiladi. Fil’tirlovchi yutkich qutisining tagida nafas olinadigan havo kirishi uchun yumaloq teshikcha mavjud tozalangan havo quticha qopqog’iga burab o’rnatilgan naycha orqali o’tib ketadi. Gazga qarshi niqob qutisidagi fil’tirlovchi yutkichning mustahkam bo’lishi uchun unda burama joylar bo’ladi. Gazga qarshi yutkichning gaz qismi gazga qarshi yutkichning qutisidagi fil’tir yutkichda tozalangan havoni nafas olish organlariga etkazish uchun, shuningdek, yuz va ko’zni radioaktiv zaharlovchi modda va bakterial vositalar tushishidan himoya qilish uchun mo’ljallangan. Niqob rezinadan tayyorlanadi: uning ikkita ko’zoynak qismi, ko’zoynaklar terlashini kamaytiruvchi 2 ta obtekatel, shlem-niqobli fil’tirlovchi qutichani birlashtiruvchi rezinali naydan iborat.

Ko’zoynaklar shishadan tayyorlangan bo’lib, ular shlem-niqobga mahsus oboymalar yordamida mustahkamlangan. Terlamaydigan plenkani mustahkamlash uchun xizmat qiladigan qisqich halqa ham ko’zoynak o’zeli tarkibiga kiradi. SHlem-niqob obtekatellarining vazifasi nafas olganda keladigan va sovuq havoni bevosita ko’zoynaklarga etkazib berishdan iborat bo’lib, mana shu tufayli oynaklarning terlash darajasi ancha pasayadi. Niqobdagi birlashtiruvchi naycha rezinadan tayyorlangan bo’lib, ustiga gazmol qoplangan. Uning bir uchi maska niqobning klopan qutisidagi patrubkaga zich qilib o’rnatiladi, ikkinchisi esa, ko’chma gayka bo’lib, u fil’tirlovchi-yutuvchi korobkaning og’zi bilan birlashtiriladi. Trubkadagi mavjud ko’ndalang birikmalar unga zarur egiluvchanlik baxsh etadi, naycha bukilgan, cho’zilgan yoki yozilgan vaqtida orasidan havo bemalol o’tadi.

Respiratorlar nafas a`zolarini radioaktiv va tuproq changlaridan va bakterial aerozollardan himoya qiladi. Hozirgi vaqtda repiratorlardan R-2 va SHV-1 "Lepestok" keng qo’llanilmoqda.

R-2 respiratori 3 qavatli materialdan tayyorlangan bo’lib, yuqori qavatli penopoliuretandan yasalgan. Respirator himoyalov rangga bo’yalgan bo’ladi, ichki qavati polimer polietilen plenka bilan o’raladi, havoni o’tkazish uchun 2 ta nafas oluvchi klopan, penopoliuretan va polietilen pilyonka orasiga fil’tirlovchi polimer tolalaridan to’kilgan material qo’yiladi. Nafas olgan vaqtda havo raspirator bilan fil’tirning butun sirtidan aylanib o’tib changdan tozalanadi va nafas olish klapanlari orqali nafas olish a`zolariga etib keladi. Nafas chiqarilgan vaqtda havo tashqariga

nafas chiqaruvchi klapan qopqog'i orqali chiqib ketadi, R-2 respirator 3 xil O'lchovda (1,2,3) tayyorlanadi.

SHB-1 "Lepestok" repiratori maxsus yuqori fil'tirlash xususiyatiga ega bo'lib, lyuterialdan tayyorlangan.

Tinkali himoya kostyumi (KZP)-harbiy xizmatchilarning teri qavatlarini zaharlovchi moddalar, bakterial vositalardan himoyalash va formali kiyim-kechaklar, aslaha-anjomlar, qurolning zararlanishini kamaytirish uchun mo'ljallangan. Plenkali himoya kostyumi, himoya plashi va himoya poypog'idan iborat bo'lib, polimer shaffor plenkali materialdan tayyorlangan. Himoya kombinzoni rezina qo'shilgan materialdan tayyorlangan bo'ladi. U yaxlit tikilgan kurtka, shim va kopyushondan iborat. Umumharbiy kompleksli himoyalovchi kostyum (OKZK)-harbiy xizmatdagilarni yadro zaryadi portlashi natijasida paydo bo'lgan yorug'lik nurlanishidan, radioaktiv aerozollardan, zaharlovchi modda bug'laridan himoyalash uchun mo'ljallangan. Umumharbiy kompleksli himoyalovchi kostyum: himoyalovchi ko'ylak, himoyalovchi shim, kurtka, soyabon plotkadan iborat. Umumharbiy komplekisli himoyalovchi kostyumga yonishdan saqlaydigan modda shimdirilgan bo'ladi. (20%li DG-P pata) himoyalovchi ko'ylak va shimga esa maxsus kimyoviy moddalar shimdirilgan bo'ladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Nafas olish a`zolarini himoya qilish vositalariga qaysi vositalar kiradi?
2. Gaz tozalagich qaysi qismlardan iborat?
3. Respiratorlar nima uchun qo'llaniladi?
4. Terini himoyalovchi vositalarga qaysi vositalar kiradi?
5. Umumharbiy kompleksli himoyalovchi kostyum shimlardan iborat?

## TAYANCH IBORALAR

SHaxsiy himoya vositalari; fil'tirlovchi va ajratuvchi vositalar; gazga qarshi niqoblar; fil'tirlovchi chang yutuvchi quticha; rezinali yuz niqobi aerozol; ko'zoynak qismi; terlatmaydigan plyonka, respirator; changga qarshi gazmol niqoblar; shaxsiy himoya vositalari odamni radioktiv, zaharlovchi moddalar va bakterial vositalardan himoya qilish uchun ishlatiladi.  O'z vazifasiga ko'ra ular nafas olish organlarini himoya qilish vositalari va odam terisini himoya qilish vositalariga bo'linadi.

# MA`RUZA 8.

# Fuqaro muhofazasining xabar berish vositalari hamda shikastlanish uchoglarida Aholini o'zini tutish koidalari

## R E J A

1. Urush va favkulodda vaziyatlar yuz berganda xabar berish vositasi.
2. «Xavo xavfi» signali
3. «Radiatsiya xavfi» signali
4. «Himoya xavfi» signali
5. Aholini kiyoviy shikastlanish uchoglarida o'zini tutish koidalari
6. Bakterialogik shikastlanish uchoglarida o'zini tutish koidalari
7. Karantin va observatsiya

## ADABIYOTLAR


1. Altunin A.T. «Fuqaro muhofazasi» (T. 1985)
2. Murodov A.T., SHodiyev S.N. «Fuqaro muhofazasi» (B.2000)


### Fuqaro muhofazasining xabar berish vositalari.

Dushmaning xujum qilish xavfi yoki tabiy texnogen xususiyatli favkulodda vaziyat e`lon kilganidan keyin vaziyat nixoyatda tez o'zgarib ketishi mumkin. Ma`lum bir vaktda fuqaro muhofazasining xabar berish vositasi bo'lib, «Dikkat» barchaga xisoblanadi. «Dikkat barchaga» signalini berishdan maksad dushman tomonidan yadro, ximiyaviy-bakteriologik yoki boshqa qurollarni bevosita kullash yoki tabiy-texnogen xususiyatli favkulodda vaziyat tugilganligi natijasida himoya choralari kurish kerakligi to'g'risida shaxar aholisi va kishlok joylarida yashovchi kishilarni o'z vaktida ogoxlantirib qo'yishdan iborat. Signallarni fuqaro muhofazasi tashkilotlari beradi.

Aholini ogoxlantirish uchun quyidagi signallar belgilangan.

«Xavo xavfi»,

«Xavo xavfi tugadi»,

«Radiatsiya xavfi»,

«Ximiyaviy xavf»,

«Xavo xavfi» signali.

Signal butun aholi uchun beriladi.

Dikkat! Barchaga

Signal televizion tarmok bo'yicha xam berilishi mumkin. Signal tekisti bir necha bor takrorlanadi. Signal 2-3 minut davom etadi, siz «Dikkat barchaga» signalini eshitgach, mumkin kadar tezrok binodan chikib ketish, pana joyga utib

yashirinish kerak, bunday patda tez, lekin vazminlik bilan vaxima kutarmasdan xarakat qilish lozim. Agar signal berilgan vaktda ishda bulsangiz... Bunday xollarda korxonadagi maxsus kursatmada ko’zda tutilgan tadbirlarni kat`iy bajarish zarur. Siz agar signal berilgan vaktda kuchada, transportda kelayotgan bulsangiz, uyga karab shoshilmasdan, balki signal eshitilgan rayoda yashirinish kerak, siz jamat joylarida (magazinda, teatr, bozorda) bulsangiz, metro stantsiyasi pana joy kaerda ekanligini va u erga qanday kulay yo’l bilan borish mumkinligi to’g’risidagi kursatmalarni dikkat bilan tinglab olish, iloji boricha tezrok usha joylarga etib borish, yashirinish lozim. Signal berilgan vaktda bolalr maktabda bulsa, mashgulotlarini darxol tuxtatish vva bolalarni pana joylarga olib borish kerak, bolalardan xech biri uyiga junatilmaydi, ukituvchilar. Ukuvchilarga shasiy himoya vositalaridan foydalanish koidalarini, himoya inshootlarida o’zini tutish koidalarini, binodan chikib ketishga tugri kelsa, u xoldazaxarlangan hududlarda xarakat qilish koidalarini eslatib turish lozim.

Kishlokda yashovchi kishilar signal berilgan vaktda uyda bulsalar, ularning xarakati xuddi shaxar aholisining xarakati singari bulishi kerak, ular ertula va boshqa chukurrokkovlab qurilgan inshootlardan himoya sifatida foydalanish mumkin. «Xavo xavfi» signali bo’yicha, moxirlik bilan anik xarakat qilish, pana joy va yashirinish joylari kaerda ekanini bilish, signal berilganda xarakat koidalariga kat`iy rivoya qilish odamlar hayotini saqlab koladi.

**«Xavo xavfi tugadi» signali.**

Signal fuqaro muhofaza tashkilotlari tomonidan radiotranslyatsion tarmoklari orkali, mahalliy radio va televizion stantsiyalari orkali, hamda konkret sharoitda foydalanish mum5kin bo’lgan boshqa vositalar orkali beriladi. Signal quyidagi mazmunda beriladi.

«Dikkat! Barchaga» Xavo xavfi tugadi! Xavo xavfi tugadi.

Mana shu signal bo’yicha xamma ishchi va xizmatchilar o’z ish joylariga kaytib keladilar va ishga tushadilar.

**«Radiatsiya xavfi» signali**

Dushman tomonidan bevosita yadro quroli kullanilmagan aholi punktlarida xam odamlar shikastlanish xavfidan xoli bulmaydilar. Er osti va er ustida portlashlar radioaktiv zaxarlanish okibatlari ayniksa xavfli bulishi mumkin. Radioaktiv bulut juda katta hududlarga kuchib utishi hamda katta-katta maydonlarni zaxarlashi mumkin. 1954 yil 1 martda Amerikadlik Atolla Bikini orolda vodorod bombasini portlatib sinovdan utkazdilar. SHu portlash vaktida vujudga kelgan radioaktiv moddalar o’zunligi 350 km va kengligi 100 km gacha bo’lgan joylarni kuchli darajada zaxarlab tashladi.

«Radiatsiya xavfi» signali barcha mahalliy texnik aloqa vositalari va xabar berish usullari yordamida beriladi: joylarda esa ovozli va nur yordamida signal berish vositalari bilan takrorlanib turadi. Agar odamlar zaxarlangan joylarda turib kolsalar yoki zaxarlangan uchastkasidan bir dona radiatsion himoya vositasini olib ishlatishi mumkin.

**«Ximiyaviy xavfi» signali.**

Bu signal texnik aloqa vositalari va xabar berish vositalari yordamida ximiyaviy xavf paydo bo’lganda bakteriologik xujum xavfi bevosita aniklangan vaktida beriladi, gazga karshi nikob, zarur bulsa terini himoya qilish vositalarini tarkib olish, hamda birinchi imkoniyatdanok himoya inshootlariga kirib yashirinish lozim. Mabodo yakin atrofda himoya inshootlari b3ulmasa, u xolda zaxarli modda bakteriologik vositalarning aerozollaridan himoyalanish uchun turar joy binolaridan va boshqa yordamchi xonalardan yashirinish joyi sifatida foydalanish mumkin.

AI-2 aptechkasidan fosfor organik moddalar – FOV, bakteriologik moddalar bilan zaxarlangan, xuddiy ana shunday sharoitlarda esa yana usha aptechkaning o’zidan bakteriologik zaxarlanishga karshi 1 vositadan foydalanish kerak.

Aholining ximiyavviy, bakteriologik shikastlanish uchoglarida o’zini tutishi va xatti-harakatlari koidalari.

Zaxarli moddalar ta`siriga uchragan xudud buning natijasida odamlar, xayvon yoki usimliklarning shikastlanishi yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo’lgan joylar ximiyaviy shikastlanish uchogi xisoblanadi. Dushman tomonidan ximiyaviy xujum xavfi borligi aniklangandan keyin yoki zaxarlangan xudud buylab yurib borilganda terida, kiyim – kechaklarda, poyafzalda yoki shaxsiy himoya vositalarida zaxarli moddalarning tomchi yoki, shiralari borligi ma`lum bo’lgan xollarda ularni darxol doka yoki paxtadan tayyorlangan taplonlar bilan aritib tashlash kerak. SHikastlangan joylarni ximiyaviy xujumga karshi shaxsiy paket ichidagi eritma bilan artish kerak yoki ilik suvda yaxshilab sovunlab yuvish yo’li bilan ishlov beriladi. OV bilan jaroxatlangan vaktda AI-2 aptechkasining 2 katagiga joylashgan tabletkalarni ichish zarur.

Bakteriologik vositalar bilan zaxarlangan hamda yukumli kasalliklarni tarkalish manbai xisoblangan shaxarlarni, boshqa aholi punktlarini va territoriyalarni bakteriologik shikastlanish uchogi deb ataladi.

Bakteriologik qurolni shikast etkazish negizini tashkil etgan bakteriologik vositalardan himoyalashga karatilgan tadbirlarning o’z vaktida samarali ravishda utkazilishi kup jixatgan dushman tomonidan kilinadigan bakteriologik xujum belgilari kanchalik yaxshi urganilgani bilan belgilanadi. Dushman tomonidan bakteriologik qurol kullanilgani to’g’risidagi belgilarning birortasi aniklangan, darxol takib olish, iloji boricha terini himoya qilish vositalarini kiyib olish, hamda bakteriologik qurol kullanilganligi xakida fuqaro muhofazasi boshqa rmasining eng yakin erdagi tashkilotlariga tibbiy muassasasiga xabar qilish kerak. YUkumli kasalliklarni tarkalishini oldini olish uchun dushman tomonidan bakteriologik qurol kullanilgan vaktda rayonlar, shaxarlar, xalq xujjalik ob`ektlaridagi fuqaro muhofazasining boshliklarining farmoishi bilan karantin va observatsiya choralari kullaniladi.

Kasallik tarkalish vositasi alohida xavfli bo’lgan guruxga aloqador bulmagan xollarda e`lon kilingan karantin observatsiya bilan almashtiriladi. Observatsiya shikastlanish uchogi tibbiy ko’zatuvi olib borishning hamda zarur davolash – profilaktika tadbirlarining o’tkazishni nazarda tutadi. Observatsiya vaktida joriy etiladigan ajratish.

Ogir kasallarning yuzini xul sochik yoki salfetka bilan aritib qo'yish kerak: ko'zini va ogiz bushligini bor kislotasi yoki ichimlik sodaning 1-2 foizli eritmasidan xullangan tampon bilan artiladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Urush va favkulotlar yuz berganligi to'g'risida xabar berish vositalari to'g'risida ma`lumot bering.
2. Xavo xavfi signali kaysi vaktlarda beriladi.
3. Radiatsiya xavfi signali.
4. Ximiyaviy xavf to'g'risidagi signal.
5. Aholining ximiyaviy shikastlanish uchoglarida o'zini tutish koidalarini izohlang.
